



## SHARQ VA G`ARB PEDAGOGIK QARASHLARIDA TARBIYANING O`ZIGA XOS KO`RINISHLARI

---

*Ismoilova Dildora Ismoil qizi*

*Qashqadaryo viloyati, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti,  
Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili yo`nalishi 1 –bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** maqolada Sharq va G`aarb pedagoglarining pedagogik qarashlari, fikr-mulohazalari keltirilgan. Mazkur maqolada pedagogikaning bugungi dolzarb masalari yechimi haqida fikrlar keltirilgan.

**Kalit so`zlar:** Sharq va G`arb pedagogikasi va uning qiyosiy tahlili, yondosh tushunchalar, pedagogik mahorat tushunchasi

Bugungi tezkorlik bilan rivojlanayotgan axborot asri ta`lim sohasini ham qamrab olmoqda. Ta`limga innavatsion yondashuv ta`lim sifatini sezilarli darajada oshiribgina qolmay, uzlusiz ravishda davom ettirishni talab qiladi.

Yoshlarni yetuk inson bo`lishida ko`proq ularning orzu-intilishlari, dunyoqarashidan, xohish-istkalaridan kelib chiqqan holatda ish ko`rish maqsadga muvofiq.

Vatanimiz kelajagining yanada ravnaq topishida, yosh avlod ongida olijanob tuyg`ularni chuqur ildiz otishida o`qituvchining roli nihoyatda salmoqlidir. Yoshlar tarbiyasi, kelajak avlodning ma`naviy-ruhiy qiyofasi, har qanday jamiyat taraqqiyotining muhim sharti hisoblanadi. Ammo nazarda tutmoq kerakki, tarbiya real voqelikdan uzib olingan narsa emas, balki anglangan hayot falsafasidir. Sharqda azaldan tarbiya amaliy sifat kasb etib kelgan. Ya`ni insonni an`analar, odat va rasm -rusumlar vositasida amaliy faoliyat asosida tarbiyalash yetakchi o`rin tutgan. Shundy ekan har qanday tarbiya negizida milliy mentalitet xususiyatlari bo`lishi kerak.

Niholni ko`karib, o`sib borayotganini ko`rish, ayniqlsa, uning parvarishida ko`maklashish kishiga zavq-u shavq bag`ishlaydi. Mamlakatimizda yoshlarga alohida mehr va g`amxorlik ko`rsatilmoqda, ularning har birining qobiliyati, iste`dodi ro`yobga chiqishi uchun barcha zarur sharoitlar yaratilmoqda. Yoshlarning intellektual salohiyati yuqori, dunyoqarashi keng va har qanday vaziyatga o`zining mustaqil fikrini bildira oladigan qilib tarbiyalashni o`z oldimga maqsad qilib qo`yanman. Buning uchun avvalo, yoshlarda mutolaa madaniyatini to`g`ri shakllantirish, ularni foydali, mazmundor kitoblarni o`qishga o`rgatishdan iboratdir.



Lev Tolstoy umri davomida bir qancha mutafakkirlarning fikrlarini yozib, undan ma`nan quvvat olib yashagan. U esdaliklarining birida shunday yozadi: "Eng avvalo, noyob kitoblarni o`qing,yo`qsa ularni mutolaa qilishga umuman ulgurolmay qolasiz". Astrid Lindgren shunday yozadi:"Bu dunyoda qanday buyuk ishlar amalga oshirilgan bo`lsa,avvalo, inson tasavvurida yaralgan. Ertaga dunyoning qanday bo`lishi hozir kitob o`qishni o`rganayotgan kichkintoylarga bog`liq. Mana shuning uchun ham bolalarga kitob kerak!" Mana shunday sermazmun fikrlarga tayangan holda o`quvchilar ongida yaxshi kitoblarni, mazmumbaxsh asarlarni o`qishiga yo`naltirish mening oldimga qo`ygan navbatdagi maqsadlarimning asosiy qismidir.

Bugun sharoit o`zgacha, ta`imda rivojlanish yangi bosqichga chiqib ulgurgan. Ta`lim va tarbiya jarayonida o`z milliy tarbiya ko`nikmalarimiz bilan bирgalikda jahon tajribasini ham o`rganishimiz lozim. Jahonning en buyuk pedagoglari taajribasidan kelib chiqqan holda tarbiya va ta`limni yanada rivojlantirish mumkin. Avvalo, o`quvchining o`z shaxsiy qarashlarini, o`zining "men"ini shakllantirib olish lozim. o`quvchining qalbidagi orzu –intilishlarini o`zi qadam tashlab kelayotgan hayotiga amal qiladigan shiorlari, prinsiplari bo`lmasa unda keljakka intilish nisbatan sust bo`ladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, o`qituvchi pedagogik jarayonni ko`proq hayot bilan bog`liqlikda olib borsa hamda dars jonli sahna ko`rinishi kabi ruhga ega bo`lsa o`quvchi ko`proq etik va estetik, ruhiy-ma`naviy quvvat oladi. Bunda o`qituvchi adabiyot fanida ko`proq natijaga erishadi. Ruhi, ma`naviyati o`zbek mentaliteti ufurib turgan durdoni asarlardan quvvat olib o`sgan avlod O`ZGANI TUSHUNISH, G`AYRI G`OYALARga og`ishmaslik kabi tushunchalar bilan o`sadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.R.Mengliyev.Hozirgi o`zbek adabiy tili.Qarshi 2008
2. Sayidaxmedov N.Pedagogik amaliyatda yangi texnologiyalarni qo`llash namunalari-T:RTM,2000-46bet
3. N.X.Avliyakulov Pedagogik texnologiya.Toshkent-2012